

CHO'LPOONING TEATRGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLARI**Tashpulatov Muxriddin Raxmatulla o'g'li**

ADU 1-bosqich doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14555661>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi o'zbek adabiyotining yirik namoyandası Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning teatr san'atiga oid ilmiy-nazariy qarashlari haqida qisqacha bayon etilgan. Cho'lponning davriy matbuotda e'lon qilingan ma'lum dramatik asarlar tahliliga bag'ishlangan maqolalari asos qilib olingan bo'lib, unda muallifning sahna ilmiga oid subyektiv xulosalariga munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, teatr, sahna, "Turkiston" gazetasi, "Teatr – san'at", tanqidiy tahlil, "Abo Muslim".

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ЧОЛПОНА К ТЕАТРУ

Аннотация. В данной статье кратко изложены научно-теоретические взгляды великого деятеля новой узбекской литературы Абдулхамида Сулы, сына Чолпона, на театральное искусство. В его основе лежат статьи Чолпона, посвященные анализу некоторых драматических произведений, опубликованных в периодической печати, в которых выражены субъективные выводы автора о сценической науке.

Ключевые слова: Чолпон, театр, сцена, газета «Туркистон», «Театр-искусство», критический анализ, «Або Муслим».

CHOLPAN'S SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON THEATRE

Abstract. This article briefly describes the scientific and theoretical views of the great figure of new Uzbek literature, Cholpon, on theater art. It was created on the basis of Cholpon's articles devoted to the analysis of some dramatic works published in the periodical press, in which the author's subjective conclusions about stage studies were expressed.

Key words: Cholpon, theater, stage, "Turkiston" newspaper, "Theatre - art", critical analysis, "Abo Muslim".

Ijodiy imkoniyatlari keng, iste'dod ko'lami cheksiz bo'lgan jahoning aksariyat katta shoirlariga xos ustuvorliklar avvalida barcha adabiy turlar doirasida qalam tebratish mahoratini puxta o'zlashtirish xususiyatini ko'rishimiz mumkin. **She'r – nasr – dramaturgiya** bosqichlarini bosib o'tish uchun adib har jihatdan kamol topmog'i, o'zini ulug' ijodiy jarayonlarga chog'lamog'i: ham ruhan, ham jisman bunga tayyor bo'lmog'i zarur.

Yangi o'zbek adabiyotining yirik namoyandası Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon qalb-u shuurida kechgan poetik tafakkur hosilalari zamirida uning adabiyot, badiiy so'z va ifoda usullari, original asar yaratish muammosi, jahoni yajribani istifoda etish masalasi kabi qator

nazariy qarashlari, badiiy asar qanday bo‘lishi kerak, degan hamma davrlar uchun o‘z aktualligini yo‘qotmaydigan jiddiy savolga javob topish yo‘lidagi ijodiy izlanishlari mujassamdir.

Shu ma’noda Cho‘lpon teatr san’ati va uning ichki-tashqi, baland-past jihatlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganib borgan. “Agar asar to‘laligicha dialoglardangina tashkil topsa, – deb yozadi professor D.Quronov, – qarshimizda roman emas, pyesa namoyon bo‘ladi” [1.160]. Cho‘lpon badiiy matnning bunday muhim texnik qonuniyatlarni ham romannavis, ham senariynavis sifatida, qolaversa, jahon dramaturgiyasining shoh asarlari bilan tanishib chiqqan sinchi kitobxon va mohir mutarjim o‘laroq yaxshi bilgan. Bunday xulosalarga kelishimizda shoirning vaqtli matbuotda e’lon qilingan teatr san’ati, sahna madaniyati, aktyorlarning mahorati, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimiga oid subyektiv qarashlari o‘z ifodasini topgan maqolalarini tekshirish asos bo‘la oladi. Xususan, “Turkiston” gazetasining 1922-yil 29-sentyabr sonida e’lon qilingan Cho‘lpon qalamiga mansub “Teatr – san’at” nomli maqolada muallif xuddi teatr san’atining xos munaqqidlari kabi dramatik asarning eng muhim jihatlari haqida qisqacha bayon etib, ularning muayyan kamchiliklarni ko‘rsatadi: “Matbuotimizda ismi ko‘runub kelaturg‘on “S” (Sanjar) o‘rtoq tomonidan tarjima qiling‘on “Qimorbozlar hayoti” – Ovrupo qimorbozlig‘ining qo‘rqunch yoqlarini yaxshi ko‘rsatadir. Bunda qimorbozliqning qaynag‘on joyi, qimorbozlarning ish ustidagi “faoliyatları” ko‘runmaydir. Bunda bu yomon odatning oilaga qilg‘on ta’siri ko‘brak ko‘rsatiladir. Tarjima tekisgina chiqqon. G‘udur-budurliq ko‘b sezilmadi.

Faqat bunda o‘ynag‘uchi artistlarimiz (Abror, Sayfi qori, Ziyo Said, Shokirlar) nimagadir xiyla yet va begona bo‘lub o‘ynadilar. Samimiylilik, ro‘lni anglab o‘ynashlik, sahnada erkin bo‘lishliq – mana bularni ko‘ra olmadik. Xalq oz edi, kirim yomon bo‘lg‘on, ehtimolkim shuning uchun artistlarimiz “baribir” deb o‘ynag‘on bo‘lsalar...” [2]. Mana shu parchaning o‘zidayoq maqola muallifi fransuz dramaturgi Viktor Dyukanjning “Qimorbozlar hayoti” nomli pesasi tarjimasiga, uning syujeti va voqealar kechadigan paviloniga (pesada oila, uy berilgan), rol o‘ynagan aktyorlarning mahoratiga baho beradi. Samimiylilik, rolni his etib, anglab ijro etish, aktyor sahnada o‘zini erkin tutishi zarurligi bayon etarkan, nomlari keltirilgan Abror, Sayfi qori, Ziyo Said va Shokir kabi aktyorlarning bunday xususiyatlarga xiyla yet bo‘lib rol o‘ylaganini qayd etarkan, shu o‘rinda “nimagadir” deya hayron bo‘ladi Cho‘lpon. Anglashiladiki, mazkur aktyorlar odatda sahna va ijro hadisini bir qadar olgan, bungacha o‘ynagan rollarini katta ehtimol, mahorat bilan ijro etganini sezish mumkin. Cho‘lpon mana shunday nozik jihatlarni ham e’tibordan qochirmagan. Shuningdek, Cho‘lpon, mazkur maqola doirasida “Xiyonatkorlar jazosi”, “Er va xotin”, “Arshin mololan” singari sahna asarlarini ham tilga olib o‘tadi. “Sahnamizda necha marotaba o‘ynalg‘on “Er-xotun” va “Arshin mololon” tomoshalari to‘g‘risida qayta-qayta yozishni ortiq topaman. Bu to‘g‘rida shunigina aytamankim, bizning sahnamizning eng zo‘r kamchiligi – dram o‘ynag‘uchilarning o‘perada chiqishlaridir.

Mana bu kamchilik har ikki tomoshada ham eng qattig‘ sezildi. Bilmadim, qachon bizning sahnamiz o‘perada boshqa, dramda boshqa hay’atga ega bo‘lur ekan. Har holda, so‘nggi ikki tomosha sahnamizning yana jonlanib, tuzalib borg‘onini ko‘rsatadir” [2].

Cho‘lponning 1921-yilda e‘lon qilingan yana bir “Abo Muslim” sarlavhali maqolasida Fitrat qalamiga mansub “Abo Muslim Xurosoniy” nomli besh pardali, yetti ko‘rinishli drama xususida so‘z boradi. Cho‘lpon boshqa dramatik asarlarni bevosita ko‘rib, so‘ng ular haqida fikr bildirgani singari mazkur pesani ham tomshabinlar qatorida kuzatganiga shubha yo‘q. Shu o‘rinda aytish joizki, Cho‘lpon ma’lum asar mazmuni, ziddiyati va voqealar kechadigan zamon va makonni besh qo‘ldek ko‘ra biladigan ijodkorlardandir. U maqolada dramatik asardagi turfa qahramonlar va ikkinchi darajali obrazlar aks etgan sahnalarini ijobiy baholaydiki, buni davr taloto‘plari va murakkabliklari taqozosi deb hisoblaydi: “Tomosha – aralashqachu qahramonlarning ko‘bliги ham tarixning eng chuvalashqon davridan olinib yozilg‘oni uchun tomoshaning so‘ngiga uning natijasini to‘la ko‘rvataturg‘on bir ko‘runush ortdirilg‘on. Bu ko‘runush xiyla muvaffaqiyatlik tuzulgan”. [3] Maqolani diqqat bilan o‘qisak, Cho‘lpon muayyan tomosha haqidagi fikrlarini, uning yutuq va kamchiliklarini muntazam ravishda – voqealoyining o‘zida yon daftariga qayd qilib borishini sezish qiyin emas. Sahna asarlarini oddiy tomoshabin ko‘zi bilan emas, mutaxassis nazari bilan idrok etuvchi Cho‘lponning ushbu tizimli sanog‘ini maqola yozguncha yodaki ravishda qayta tiklash oson emas: “Endi o‘ynag‘uchilarg‘a kelsak, Abo Muslim ro‘lida Abror tomoshaning boshdan-oyog‘ig‘acha bir tekis olib bora olmadi. Ochibroq aytganda, biz islomiyat tarixida juda ulug‘ dovruqlarg‘a sabab bo‘lg‘on temir vujudlik, po‘lat irodalik, mudhish Abo Muslimni ko‘ra olmadiq. Abror epchil artisimizdir, shu tilagimizni bu safar bo‘lmasa, boshqa bir safar bera olishig‘a ishonamiz. Oxirgi ko‘runishda abbosiyarning birinchi xalifasi ro‘lini Sayfi qori juda yumshoq o‘ynadi. Ayniqsa, Abo Muslim bilan Marv begi qizining o‘lishlari chog‘ida, karomatchi shayx choponi ostidan hovarjlarning josusi Zahhok chiqib kelgan vaqtida, o‘zining katta va tuzalmas xatolarini anglag‘on damlarda shu qadar kam harakat edikim, sira qo‘ya qoling! Sayfi qorining ampulasi (o‘ynayturg‘on o‘yunlari) belgulikdir. Rejissur shuni ko‘zda tutub uni g‘oyat jiddiy bo‘lg‘on shu xil ro‘llarga chiqarmaslig‘i kerak. Bizning Turkistonda “dog‘uli ayyor” deb nom chiqarg‘on Zahhok ro‘lida Uyg‘ur boshdan-oyoq yaxshi. Ko‘zga ilinarilinmas sustlik va ruhsizligini sanamasak, Marv begining qizi Gulnor ro‘lida Mas’uma xonim yaxshi. Abo Muslimning vaziri Xolid ro‘lida O’ktam, Marv begi ro‘lida (avvallarda Sayfi qori) Amir Ali ro‘lida Shokir, Yazid ro‘lida Olim, Gulnorning enagasi ro‘lida (Robiya Tutash tekis o‘ynaydilar. Narsiyor ro‘lida chiqqan Bosit bilan Yazid ro‘lidagi Olimning yuksak ruh bilan vaziyat va ahvolg‘a yondashtirib o‘ynashlarini aytib o‘tmak kerak. Boshqa kichkina vazifalar ham durust bajarildi” [3].

Cho‘lpon jamiyatga teatr orqali kuchli ta’sir o‘tkazish, uni ma’rifatga, milliy ozodlik uchun kurashlarga chorlash, didini, dunyoqarashini o‘stirish mumkinligini birinchilardan bo‘lib payqagan jididlar sirasiga kiradi. Cho‘lpon shu maqsadda ham teatr san’atining sir-asrorlarini o‘zlashtirishga bel bog‘lagan.

REFERENCES

1. Куронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Тошкент: “Шарқ”, 2004. – 288 б.
2. Абдулҳамид Чўлпон. “Театр – санъат”. // “Туркистон” газетаси, 1922 йил, 19 сентябр.
3. Абдулҳамид Чўлпон. “Або Муслим”. // “Туркистон” газетаси, 1921 йил, 21 декабр.